

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BOSHLANG'ICH SINFLARIDA HARAKATLI O'YINLAR VOSITASIDA VALEOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH BORASIDAGI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17851521>

Xudoyberdiyev Shuxrat Mamayusupovich

Termiz davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat va San'at fakulteti dekani.

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Annotatsiya

Maqolada Valeologik madaniyat bu shaxs tomonidan salomatlikni saqlashga doir nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilganligi hamda uning o'z salomatligi va atrof-dagilar sog'ligiga qadriyatli munosabatda bo'lishi bilan belgilanadi deb yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

nazariy bilim, amaliy ko'nikma, harakatli o'yinlar turlari, orzu-istaklari, o'y-fikrlari, psixologik, pedagogik, jismoniy ko'rsatkichlar, ta'lim-tarbiya tizimi.

Аннотация

В статье поясняется, что валеологическая культура определяется приобретением человеком теоретических знаний, практических навыков и компетенций, связанных с заботой о здоровье, а также его ценностным отношением к собственному здоровью и здоровью окружающих.

Ключевые слова

теоретические знания, практические навыки, виды игр-действий, сновидения, мысли, психологические, педагогические, физические показатели, система образования.

Annotation

The article explains that Valeological culture is determined by the acquisition of theoretical knowledge, practical skills, and competencies related to health care by a person, as well as his valuable attitude to his own health and the health of those around him.

Key words

theoretical knowledge, practical skills, types of action games, dreams, thoughts, psychological, pedagogical, physical indicators, educational system.

Mavzuning dolzarbligi: Dunyoda yoshlarning ta'lim va tarbiya olishlarida teng huquqni ta'minlash, ularning o'sib-ulg'ayishlari va farovonlikka ega bo'lishlari uchun jamiyat doirasidagi majburiyatlarini o'z zimmasiga to'liq olishiga erishish, fan-texnika rivojining strategik mo'ljallarini tanqidiy tahlil qilish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. YUNISEF, YUNFPA, Konsortsiyum (KBK), EFSC, "Gumanitar - huquqiy markaz" kabi tashkilotlar va tadqiqot markazlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari bevosita mazkur muammo bilan bog'lanmoqda. Olingan natijalar esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar vositasida valeologik madaniyatni shakllantirish mazmuni, pedagogik shart-sharoitlarini rivojlantirib borish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularning salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan ta'lim muhitini ta'minlaydigan choralar majmuasi va tizimli tadbirlar samaradorligi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bizning nazarimizda, mazkur qonunosti hujjatlariga tayanib, umumiy o'rta ta'lim muassasalari kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ma'naviy- axloqiy fazilatlarini shakllantirish samaradorligi quyidagicha qator psixologik-pedagogik qonuniyatlarga amal qilishni taqozo etadi.

Tarixiy va pedagogik adabiyotlar tahliliga tayanib aytish mumkinki, bilimli, donishmand kishilarning hayot tarzi, inson xulq-atvorini mukamallashtirishga xizmat qiluvchi noyob Sharq mutafakkirlari asarlari, insonlar o'rtasida ezgulikni targ'ib qilib, ularning kamolga etishiga katta ta'sir etib kelgan. Demak, eng qadimgi yozma va og'zaki ma'rifiy yodgorliklarda ifoda etilgan va qadrlangan - jasurlik, mardlik, adolat, sadoqat, insoniylik, xushmuomalalik kabi xislatlar insonda o'z-o'zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyat hayotidagi ijtimoiy o'zgarishlar, ibtidoiy urug'chilikka asoslangan turmush tarzi insonning ana shunday xislatlarga ega bo'lishini taqozo etgan. Ibtidoiy tuzum kishilarining orzu-istaklari, o'y-fikrlari, maqsad va intilishlarini yoritishga xizmat qilgan afsonalarning ko'rchiligi bizga eng qadimgi yodgorliklar - "Avesto", Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarlari orqali ma'lumdir.

Shaxs va ma'naviy-axloqiy kamolot muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg'or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazidagi asosiy masalalardan bo'lib kelgan. Zardushtiylikning qadimiy kitobi - "Avesto" da farzand tarbiyasi haqidagi fikrlar bayon etilgan, bolalarni pokiza, axloqli, ezgu fikrli, zamonasining barcha hunarlarini bilgan, e'tiqodi mustahkam, ham axloqan, ham jismonan barkamol inson qilib tarbiyalashga katta e'tibor berilgan. Zardusht farzandlariga "halollik bilan kun kechirish yo'lida

g'ayratli va shijoatli bo'ling" deb murojaat qiladi. Bu hech eskirmaydigan saboqlardan biridir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi, bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, Islom dinining muqaddas manbalaridan bo'lmish Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarda ham bola tarbiyasiga birinchi va ulug'vor masala sifatida qaralgan, odob-axloq, er-xotinning burchi, farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berilgan. Bolalarga bilim berish, dunyoviy va diniy ilmlar sir-sinoatlaridan xabardor qilish Qur'on va Hadislardagi ilgari surilgan bilim va aql, ijtimoiylashuvning mezoni sifatidagi aqidaga asoslangan. Islomda faqat ilohiy ilmlargina emas, balki dunyoviy bilimlar haqida ham ma'lumotlar beriladi. Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan birga ularni o'qishga, yozishga ham o'rgata boshlashgan. Jamiyatning ijtimoiy jihatdan taraqqiy eta borishi farzand axloqiy tarbiyasiga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirib, bolalarga dunyoviy bilimlarning ilk tushunchalarini berish ehtiyoji yuzaga keldi. Bolalarda dalalarni o'lchash [67], suv toshqinlarining oldini olish, kishilarni turli kasalliklardan davolash usullariga oid bilimlarni berishga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Mazkur ehtiyojni qondirish yo'lidagi harakatning tashkil etilishi natijasida turli maktablar faoliyat yurita boshladi. Aziz Qayumovning "Qadimiyat obidalari" nomli asaridagi pand-nasihatchilikga oid o'gitlar bilan sug'orilgan she'riy parchalar tarjimai mazmuni orqali ularda ilgari surilgan ma'rifiy g'oyalar asosida o'sha davrda olib borilgan ijtimoiy jarayon haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Pedagogika rivojiga katta hissa qo'shgan Abu Nasr Forobiyning fikricha, bola tarbiyasida adolatparvarlik, zukkolik, farosatlilik, notiqlik, sog'lomlik, haqiqatni sevish, ma'rifatga intilish, kuchli xotira, qat'iyatlilik, jasurlik, jur'atli, nafsni jilovlash fazilatlarini orqali tashqi muhit, boshqa insonlar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Ta'kidlash joizki, Forobiy e'tirof etgan xislat-fazilatlar, bugungi kunda axloqiy tarbiya mezonlari sifatida, yoshlar ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda, inson haquhuqlari va erkinliklarini ta'minlashda, o'zligimizni anglash, har bir xonadonda tinchlik, osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashda muhim omil hisoblanadi.

Tahlil natijalari. Ilmiy izlanishlarimiz davomida tarixiylik tamoyiliga asoslanib, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish tizimini takomillashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari mohiyatini yoritib berishga harakat qilindi. Jahon madaniyati va ilm-u fanida Umar Hayyom dialektik

tafakkurni axloqshunos olim sifatida “Navro‘znoma” asarida inson va ijtimoiy munosabatlarda go‘zallik, mehr-oqibat, oshiq chehrali muomala barkamollikni vujudga keltiradi degan qarashlari orqali aks ettiradi. Shuni aloxida aytish kerakki. Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq” asarida axloqiy mezoniylar tushunchalar insonlarga xos nutq, aql, his-tuyg‘u, sezgi, idrok orqali namoyon bo‘lishi aytilgan. Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida go‘zallikdan rohatlanish, zavqlanish axloq borasida bo‘lsa, fazilat, nozikta‘blik ma‘naviy qadriyatlar sifatida talqin etilgan. Maktab o‘quvchilarining eng yoshi 7-10 yoshgacha hisoblanadiki, bu shaxsiyatni rivojlantirishning eng qiyin va ziddiyatli davri bo‘ladi. Maktab ostonasiga o‘tgan olti yoshli bola, asosan, jismoniy va aqliy fazilatlarini bo‘yicha maktabgacha bo‘lgan tarbiyaga ega bo‘ladi, 4-sinfga kelib, u bu yoshga xos bo‘lgan qarama-qarshiliklar va qiyinchiliklarga ega bo‘lgan o‘spirin xususiyatlariga duch keladi. O‘smir bolaning yaxshi o‘qiy olishi, uning tarbiyasida nizoli vaziyatlar vujudga kelmasligi uchun bu yoshning bolaning fiziologik xususiyatlariga emas, balki boshlang‘ich maktabda o‘tadigan hayot yo‘liga, unda shakllanadigan shaxsiy xususiyatlariga e‘tibor qaratish lozim. O‘qituvchi dasturiy bilimlar, ko‘nikmalar, rejalar va tarbiyaviy ishlarning tadbirlarida aks ettirilgan maxsus ta‘lim va tarbiya tizimiga asoslanadi. Ushbu ta‘sirlar obyektiv xususiyatga ega, bu erda bola tarbiya obyektini vazifasini bajaradi. O‘qitish va ta‘lim dasturlari boshlang‘ich maktab o‘quvchisining ma‘lum bir intellektual, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy rivojlanishini ta‘minlaydi. Zero, yosh o‘quvchilar bir xil o‘quv dasturlariga hamda maktabda o‘qitish va tarbiyalash sharoitlariga qaramay, har xil ma‘lumotlarga, turli ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishadi, har xil tarbiyalanadilar va o‘quv vazifalariga boshqacha munosabatda bo‘ladilar. Har bir bola o‘zida turli xususiyatlarni namoyon qiladi, ularning nisbati uning shaxsiyatini belgilaydi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki. Valeologik ta‘lim - bu inson salomatligini vujudga kelishi asoslarini, inson salomatligini shakllantirish, saqlash va rivojlantirish, shaxsiy salomatlikni saqlash va takomillashtirish ko‘nikmalarini egallash, unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni shakllantiruvchilarni baholay olish haqidagi bilimlar va uni tashkil etish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, salomatlik va sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha tashviqot ishlarini olib borish metodlari va vositalarini amalga oshirish jarayonidir.

Valeologik madaniyat bu shaxs tomonidan salomatlikni saqlashga doir nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilganligi hamda uning o‘z salomatligi va atrofdagilar sog‘ligiga qadriyatli munosabatda bo‘lishi bilan belgilanadi. Shuningdek, valeologik madaniyat valeologik tarbiya va valeologik ta‘lim jarayonlarining yakuniy natijasi sifatida baholanadi.

FOYDANANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hoshimov K., Nishonova C., Inomova M., Hasanova P. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma. – T., 1996. – 460 b.
2. Mahkamjonov K., Xo'jayev F. 1-sinf. Jismoniy tarbiya. O'quv qo'llanma. – T., 2011.-60 b.
3. Ne'matov B.I. Bolalar-o'smirlar sport maktablarishug'ullanuvchilarini g'ovlar osha yugurish texnikasiga o'rgatish metodikasini takomillashtirish: ped.fan.nom.diss.-Ch., 2019.-100 b.
4. Ikromov A.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faolligini shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari // Psixologiya. –2020 y № 3. – B. 111-116.
5. Ikromov A.A. Maktab o'quvchilariga jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga qiziqishni shakllantirishda harakatli o'yinlarning o'rni. Pedagogik mahorat. Ilmiy jurnal. B-2020.№ 2.232-235 b.
- Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. –T., 2004. – 72 b.
6. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Saylanma. 1-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. – 304 b.
7. Ne'matov B.I. Bolalar-o'smirlar sport maktablarishug'ullanuvchilarini g'ovlar osha yugurish texnikasiga o'rgatish metodikasini takomillashtirish: ped.fan.nom.diss.-Ch., 2019.-100 b.